



Talaba va o'quvchilarning  
ijtimoiy faolligini oshirish markazi  
direktori A. Akramov

“2024” 2024-yil

## “Men giyohvandlikka qarshiman!” shiori ostida ijodiy ishlar tanlovi NIZOMI

### I. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-noyabrdagi 759/18-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha milliy strategiyasini amalga oshirish yuzasidan 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan milliy dasturning 15-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida tashkil etiladi.

2. Ushbu tanlovda oliy ta‘lim tashkilotlarining barcha talabalari ishtirok etishlari mumkin (*IIV akademiyasi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti bundan mustasno*).

3. Nizom talaba-yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga nisbatan qarshi immunitetni shakllantirish, giyohvandlikni davolash va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida ijodiy faoliyatini rivojlantirish hamda tanlov orqali talabalarni pul mukofotlari bilan rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni tartibga soladi.

### II. Tanlovning maqsad va vazifalari

4. Tanlovning maqsadi – talaba-yoshlarning giyohvandlik, psixotrop va kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarga qarshi kurashish bo‘yicha bilimlarini baholash, oliy ta‘lim tashkilotlarida giyohvandlikka qarshi kurashish va uning zararlari haqidagi tushunchalarni tengdoshlariga targ‘ib qilish, shuningdek, hamda talaba-yoshlar o‘rtasida ijodiy faoliyat orqali sog‘lom turmush tarzini ommalashtirib, immunitetini shakllantirishdan iborat.

5. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

yoshlar o‘rtasida ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash, ularni turli zararli odatlar iskanjasiga tushib qolishlarining oldini olish;

yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma‘naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli komil inson qilib tarbiyalash;

talabalarga o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste‘dodli talabalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;



tanlov bo'yicha talabalarning ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

### III. Tanlovni o'tkazish tartibi, bosqichlari va muddatlari

6. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish yuzasidan tuzilgan Ishchi guruhlariga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosarlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari boshliqlari hamda oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari) rahbarlik qiladi hamda yuqori saviyada tashkil etilishiga shaxsan mas'ul hisoblanadi.

7. Tanlovning barcha bosqichlarini o'tkazishda kamida 6 nafar soha mutaxassislaridan iborat Hakamlar hay'ati tuziladi.

8. Tanlov **uch bosqichda** o'tkaziladi:

**Oliy ta'lim muassasasi bosqichi** – fakultetlar o'rtasida joriy yil **fevral oyining ikkinchi o'n kunligida** o'tkaziladi;

**Hududiy bosqich** – hududdagi oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida joriy yil **mart oyining uchinchi o'n kunligida** o'tkaziladi;

**Respublika bosqichi** – hududiy bosqich g'oliblari o'rtasida joriy yil **aprel oyining ikkinchi o'n kunligida** o'tkaziladi.

### IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

9. **“Men giyohvandlikka qarshiman!”** shiori ostida ijodiy ishlar tanlovi quyidagi yo'nalishlarda o'tkaziladi:

a) **adabiyot yo'nalishi** – bunda talabalar tomonidan mavzuga doir yozilgan she'r, hikoya, esse, dramatik asar va insholar ko'rib chiqiladi;

b) **tasviriy va amaliy san'at yo'nalishi** – bunda talabalar tomonidan tayyorlangan plakatlar, rasmlar, grafik ishlanmalar, akvarel, naqqoshlik, qo'lda ishlangan buyumlar, shuningdek, boshqa tasviriy va amaliy san'at turlari bo'yicha ijodiy ishlar ko'rib chiqiladi.

10. Tanlovning **“Adabiyot yo'nalishi”**ni baholash mezonlari:

imloviy savodxonligi, so'z boyligi va uslubiy mahorat – 20 ball;

mavzuning to'laqonli ochib berilganligi – 30 ball;

mavzuga oid mavjud muammolar va ularning yechimi bo'yicha takliflar – 20 ball;

amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan shaxsiy munosabatning va ular bo'yicha xulosaviy fikrlarning mavjudligi hamda ularni ifoda etish mahorati – 30 ball.

11. Tanlovning **“Tasviriy va amaliy san'at yo'nalishi”**ni baholash mezonlari:



Ijodiy ishning mavzuga mosligi, giyohvandlikning zararlarini tasvirlash darajasi va muhim ijtimoiy ahamiyati (40 ball);

ijodiy ishda original fikrlarni ifodalash va zamonaviy san'at turlaridan foydalanish darajasi (30 ball);

ijodiy ishni bajarishda texnik mahorat hamda badiiy texnikaning mukammalligi va detalga e'tibor berish darajasi (20 ball);

ijodiy ishning estetik jihatdan jozibadorligi, rang va kompozitsiya uyg'unligi, shaklning vizual va hissiy ta'siri (10 ball).

## **V. Hujjatlarni taqdim etish tartibi**

12. Oliy ta'lim muassasasi bosqichida g'olib bo'lgan 1- va 2-o'rinni egallagan talabalarning hujjatlari (*bayonnomasi va qarori, g'olib bo'lgan talablarning ijodiy ishlari hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasi*) Hududiy bosqich ishchi guruhiga 2025-yilning 20-mart sanasiga qadar taqdim etiladi. Ijodiy ishlar elektron pochta yoki telegram orqali qabul qilinmaydi.

13. Hududiy bosqichda g'olib bo'lgan 1- va 2-o'rinni egallagan talabalarning hujjatlari (*bayonnomasi va qarori, g'olib bo'lgan talablarning ijodiy ishlari hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasi*) Respublika Tashkiliy ishchi guruhiga 2025-yilning 11-aprel sanasiga qadar taqdim etiladi. Ijodiy ishlar elektron pochta yoki telegram orqali qabul qilinmaydi.

14. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan ijodiy ishlar qabul qilinmaydi.

## **VI. Mualliflik huquqlari**

15. Tanlovda ishtirok etayotgan ijodiy ish(lar)da mualliflik huquqlari buzilganda, buning uchun ishni tanlovga taqdim etgan muallif (*mualliflar jamoasi*) javobgar hisoblanadi.

16. Ijodiy ishlarni tanlovga taqdim etish bilan muallif (*mualliflar jamoasi*) tashkilotchilarga mazkur ishdan foydalanish (*internet tarmog'i, teledasturlarda joylashtirish va boshqa*) huquqini topshiradi.

17. Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan ijodiy ish(lar)ning muallifi ekanligini, ularning ijodiy ishida boshqa shaxslarning intellektual mulkka bo'lgan huquqini buzilmaganligini kafolatlaydi. Mazkur talab buzilgan taqdirda, ishtirokchi tashkilotchilarga barcha zarar hamda tashkilotchilarning o'z huquqlarini himoya qilishi uchun ketkazgan xarajatlarini qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

18. Tanlov ishtirokchisi ijodiy ishini baholash jarayonida oshkora namoyish etilishi va muhokama qilinishiga o'z roziligini bildiradi.

19. Tanlov ishtirokchilarining ijodiy ishlariga munosabat bildirilmaydi va qaytarilmaydi.

20. Tashkilotchilar tanlovga taqdim etilgan ishlardan tanlovni yoritish, to'plam yaratish va tarqatish maqsadida foydalanishlari mumkin.



21. Ijodiy ishni tanlovga taqdim etish orqali ishtirokchi ushbu Nizomning barcha bandlariga o'z roziligini bildiradi.

## VII. Tanlovning g'oliblarini taqdirlash

22. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichida g'olib bo'lgan (1-, 2-, 3-o'rin) ishtirokchilar oliy ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadi.

23. Tanlovning hududiy bosqichida g'olib bo'lgan (1-, 2-, 3-o'rin) ishtirokchilar Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari boshliqlari tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadi.

24. Tanlovning respublika bosqichida g'olib bo'lgan (1-, 2-, 3-o'rin) ishtirokchilar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining diplom hamda quyidagi miqdorda pul mablag'lari bilan rag'batlantiriladi:

### a) adabiyot yo'nalishi:

1-o'rin — 6 000 000 (olti million) so'm;

2-o'rin - 5 000 000 (besh million) so'm;

3-o'rin — 4 000 000 (to'rt million) so'm.

### b) tasviriy va amaliy san'at yo'nalishi:

1-o'rin — 6 000 000 (olti million) so'm;

2-o'rin - 5 000 000 (besh million) so'm;

3-o'rin — 4 000 000 (to'rt million) so'm.

25. Hakamlar hay'ati tomonidan qabul qilingan qarorga nisbatan qaror nusxasi berilgan sanadan boshlab 3 kunlik muddat ichida manfaatdor shaxs Respublika ishchi guruhiga apellyatsiya tartibida shikoyat kiritish huquqiga ega.

26. Respublika ishchi guruhi 10 kunlik muddat ichida murojaatni ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi va qaror nusxasini murojaat qilgan shaxsga yuboradi:

shikoyatni qanoatlantirishni rad etib, Hakamlar hay'atining qarorini o'zgarishsiz qoldirish;

shikoyatni qanoatlantirib, Hakamlar hay'ati qarorini qisman yoki butunlay bekor qilish, yangi qaror qabul qilish.

27. Respublika ishchi guruhi apellyatsiya tartibida shikoyatni ko'rib chiqishi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

28. Shuningdek, talabalarning eng sara ijodiy ishlari Vazirlik hamda oliy ta'lim muassasalarining rasmiy sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoritiladi.